

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Эсанова К. И. Махмудхўжа Беҳбудий жадид матуботи етакчisi	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Қунназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимидали электрон ўқув кўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlaring iqtisodiy masalalarga tadbiqlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatorдан foydalanish	207

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagи bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyat	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruuhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalar	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sind ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limga klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансанитова Ж. Б., Таджибаев И. У. Бастауыш сыйнып оқушыларына арналған психолого- ялық-педагогикалық диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



MILLIY UYG'ONISH DAVRI POETIKASIDA YETAKCHI G'OYA VA OBRAZLAR

Axmadaliyeva M. Sh.

CHDPU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

Madraximova I. B.

CHDPU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sinkretizatsiya, poetika, obraz, g'oja, sujet, kompozitsiya.

Ключевые слова: синкремтизация, поэтика, образ, идея, сюжет, композиция.

Key words: syncretization, poetics, image, idea, subject, composition.

O'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyot bosqichlarining ma'lum davrlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, shoiru adiblar o'zidan avvalgi ajdodlarining ijodiy izidan borib, ular ardoqlagan va kuylagan qadriyatlarni o'z asarlarida tasvir etadilar. Bunday izdoshlik va ijoddagi hamohanglik an'analarni yuzaga keltiradi. – An'ana va vorisiylik xususida so'z borganda – hayotdagি o'zgarishlar o'z-o'zicha janr tabiatiga yangiliklar olib kirmasligi, – hamma gap hayot materialining badiiy talqinida, shoirlarning ijodiy nuqtai nazari qanday yondashishi va qay yo'sinda yoritishida. Shoirlarning g'oyaviy-estetik maqsadi, ijodiy kontseptsiyasi va poetik mahoratiga bog'liq .

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan milliy uyg'onish harakatining g'oyalari badiiy adabiyotda ham o'z aksini ko'rsatdi. Millatparvar shoirlar, ziyorilar o'zlarining g'oyalarini she'riyatda yangi shakl va uslubda mahorat bilan ifodaladilar. Ularning she'riyati an'anaviylikni ham, yangilikni ham o'zida aks ettirdi. Adabiy an'analar sharqda azaldan shakllanib kelgan. Adabiy an'ana o'tmish adabiyoti to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i, davrlar o'tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qismi .

Bu davrda mumtoz adabiyot janrlarining xususiyatlari shakl va mazmun jihatidan takomillashgani, sifat e'tibori bilan o'zgargani, ayrim janrlarda sinkretizatsiya ro'y bergenini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, jamiyatdagi keskin siyosiy o'zgarish va yangiliklar adabiyotda ham o'z aksini ko'rsatmay qolmaydi. Turkiston adabiy hayotida jahon

tamadduni an'analaringin ta'siri hamda uning o'ziga xos tadrijiy davomini ko'ramiz.

Lirikada shoir o'zini to'lqinlantirgan, atrofida ro'y berayotgan voqeа va hodisalarga hissiy munosabatini obrazli aks ettirar ekan, asr boshlaridagi she'riyatimizda ham ijtimoiy hayot real tasvirlandi. Bir necha o'nlab shoirlarning bir mavzu, bir g'oya, bir yo'naliшhda yozgan lirik asarlari o'zaro turkumlilikni tashkil etadi. O'z davri uchun an'anaga aylangan mavzular, obrazlar tizimi, g'oyalar mushtarakligi jihatidan bir turkumga uyushuvchi asarlarni – poetik turkumlar deb atash maqsadga muvofiqdir.

– Poetika (yun. poetike techne – ijod san'ati) – keng ma'noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko'proq qo'llanilayotgan ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta'limot. Xususiy poetika – asarning badiiy o'ziga xosligini ochib berish, tavsiflash maqsadini ko'zlaydi, – asarlarning qurilishiga xos umumiшh xususiyatlar, badiiy usul va vositalar tizimi nazarda tutiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida poetika quyidagicha yoritilgan:

– Poetika adabiyot haqidagi fanning asarlar strukturasini, poetik shakllarni, poetik san'at usullarini o'rgatuvchi qism. Poetika mohiyatini anglash uchun badiiy asarning yaratilish jarayonini yodga olaylik. Ijodkor jamiyat bag'rida yashagani sababli turli kishilar, voqealar, yaxshi va yomon narsalarga duch keladi. Ijobiy idealni tasdiqlovchi, uning rivojiga turtki beruvchi narsalar yozuvchi muhabbatini qozonadi. Bunday narsalarni kishilarga singdirish, rivojlantirish va shu yo'l bilan ijobiy ideal tantanasini ta'minlashga harakat qiladi.

Yomon narsalar, salbiy xususiyatlar taraqqiyotimizga g'ov bo'ladi. Ular turli shaklga kirib, ishimizga xalal beradi. Bunday narsalar yozuvchi nafratiga uchraydi. Ijodkor ana shu yomon narsalarni inkor etish yo'li bilan ijobiy idealni tasdiqlaydi. Demak, hayotning o'zi ijodkor qo'liga qalam tutqazadi. U qo'liga olar ekan, o'quvchiga nimanidir aytmoqchi bo'ladi.

Yozuvchining o'quvchisiga aytmoqchi bo'lgan fikri asar g'oyasini tashkil qiladi. Badiiy asardagi barcha unsurlar g'oyaga bo'ysunadi, uning yorqin va zavqbaxsh ifodasiga xizmat qiladi. Chunki rassom uchun, olim uchun, publitsist uchun, felyetonchi uchun, umuman, kim bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun bitta muqaddas qoida bor: eng avvalo g'oya.

Navoiy badiiy asarda g'oyaning yetakchi ekanini shunday uqtirgan:

Ul kishi so'z bag'rida g'avvosdur,

Kim guhari ma'ni anga xosdir.

Demak, poetika g'oyani go'zal va zavqbaxsh ifoda etuvchi asosiy omildir. Badiiyatsiz adabiyot adabiyot emas, she'riyat she'riyat emas.



Poetika yaxlit poetik kategoriya bo'lsa-da, uni tashkil qiluvchi unsurlar mavjud. Poetika tarkibiga syujet kompozitsiya, janr, konflikt, til, badiiy tasvir vositalari, xullas, barcha – shakl qurollari (M.Shayxzoda) kiradi. Badiiy asar poetikasini tahlili ana shu unsurlar vositasida olib boriladi.

Poetikani esa adabiyot nazariyasining asosiy xulosalariga tayangan holda poeziya foydalanadigan ifoda vositalari sistemasini o'rganadi, - deb yozadi, adabiyot nazariyasi va poetikaning vazifalar doirasini aniq chegaralib, ularning bir-biriga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Adabiyotshunos V.V.Vinogradov poetikani badiiy asarlarni yaratishning shakl, vosita va usullari, badiiy asarlarning struktura xillari va janrlari to'g'risidagi fan deb ko'rsatgan. L.I.Timofeev: – Poetika termini badiiy vositalar yig'indisini ifoda qiladi. Yozuvchi ana shular vositasida yaxlit badiiy shakl yaratadi, asar mazmunini ochishga erishadi, - deb uqtirgan.

Bundan ko'rinaridiki, badiiy jihatdan puxta, mavzusi va mazmuni, g'oyasi va uslubi jihatidan poetika talablariga muvofiq keladigan she'rlarni poetik turkumlar deb atash mumkin.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev bu davr adabiyoti haqida quyidagi mulohazalarini ilgari suradi: – O'zbek adabiyotida ma'rifatchilik yo'nalishi dastlab Komil va Donish ijodida bo'y ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Dilshod Barno, Anbar otin singari adiblar ijodida alohida g'oyaviy-estetik yo'nalish tusini oldi. Shu yo'sinda nafis so'z xalq turmushiga xizmat qildirildi. Mumtoz adabiyotimiz uchun badiiy so'zning estetik jilvasi, ya'ni adabiyotning o'zi maqsad edi[8]. Adabiyotshunos yangi o'zbek adabiyotining esa xalqqa ma'rifat tarqatish, uning hayotini yaxshilash maqsadiga erishishning vositasiga aylantirilganini ta'kidlab, – ma'rifatchilik adabiyoti iqtisodiy qoloqlik, ijtimoiy tanazzul, siyosiy boshbodoqlik, huquqiy tengsizlikdan qutulishning birdan bir yo'li sifatida ommaga ma'rifat tarqatishni ko'rdi. Agar mumtoz adabiyotning qahramoni komil inson bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni ma'rifatli shaxs edi, kabi salmoqli fikrlarini ilgari surishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712 son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini taqdirlash to'g'risida"gi Farmoni //
2. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-j. Lirika.-T., 1991. 234-b.
3. Quronov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., 2010.-12-b.
4. Quronov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., 2010.- 234-b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-t.-M., 1980. 601-bet.
6. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –Toahkent: Yangi asr avlod, 2006.-179-bet.
7. Abdullayeva D. O'zbek adabiyotida an'anaviy poetik turkumlari. – Andijon, 2012.-3-bet.

8. А.Р.Давлатова М.Ш.Ахмадалиева (2021). ЖАДИД ДРАМАТУРГИЯСИДА БАРКАМОЛ ШАХС ВА ИДЕАЛ ЖАМИЯТ ТАЛҚИННИ. Academic research in educational sciences(5).
9. Мадрахимова, И. Б. (2022). Образ осени в поэзии Зульфии. Роль науки в развитии современного государства, 1(1), 190-197.
10. Inobat Bakhodirova Madrakhimova. (2022). THE INTERPRETATION OF AUTUMN IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 336–340. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2811>
11. qizi Axmadaliyeva M. S. LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDA BADIY VOSITALARNING O ‘RNI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 44-46.
12. Ахмадалиева М. Ш. Роль литературной критики в саморазвитии писателя //Мугаллим. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 14-17.
13. Ahmadaliyeva M. S. Text and interpretation in discourse analysis //Trends in Education Foreign Languages and International Economics. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 382-386.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada Turkistonda shakillangan milliy uyg‘onish harakatining g‘oyalari, mumtoz adabiyot janrlarining xususiyatlari shakl va mazmun jihatidan takomillashgani, sifat e’tibori bilan o‘zgargani, ayrim janrlarda sinkretizatsiya ro‘y bergenini kuzatish mumkin.

РЕЗИОМЕ

В данной статье можно отметить, что в Туркестане сформировались идеи национального возрожденческого движения, совершенствовались характеристики классических литературных жанров по форме и содержанию, менялись с вниманием к качеству, в некоторых жанрах произошлаシンкетизация.

SUMMARY

In this article, it can be noted that the ideas of the national revival movement were formed in Turkestan, the characteristics of classical literary genres were improved in form and content, changed with attention to quality, and syncretization occurred in some genres.

